

O‘ZBEKISTON OLIMALARINING TABIIY VA ANIQ FANLAR RIVOJIGA QO‘SHAYOTGAN HISSASI

*Igamqulova Zilola Murodovna- o‘qituvchi,
Qarshiboyeva Bonu Zafar qizi -talaba
Jizzax davlat pedagogika universiteti
e-mail: igamkulovazilola@gmail.com*

***Annotatsiya:** Bugungi kunda yurtimizdagi olimlar qatorida ayol olimalarimiz ham faoliyat yuritib kelishmoqda va ular o‘zbekistonda aniq va tabiiy fanlarning rivojlanishiga o‘zlarining hissalarini qo‘shib kelishmoqda. Olimalarimiz asosiy qismi esa hozirgi kunda yurtimizdagi oliy ta’lim muassalarida dars berishmoqda va maktabda ham ishlab maktab o‘quvchilariga bilim berayotgan olima ayollarimiz ham mavjud. Ular o‘zlarining qilgan ishlari yordamida o‘quvchi va talabalarning bilimini oshirib kelishmoqda. O‘zlarini qilgan ishlarini maqoda va tezis ko‘rinishida yurtimiz va xalqaro jurnallarda chop etib kelishmoqda va bu orqali o‘z hamkasblariga bilimlarini ulashib, malaka va ko‘nikmalarini oshirib kelishmoqda.*

***Kalit so‘zlar:** aniq fanlar, tabiiy fanlar, maqola, jurnal, tezis, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik*

Вклад ученых узбекистана в развитие естественных и точных наук

***Аннотация:** Сегодня среди ученых нашей страны работают и наши женщины-ученые, которые вносят свой вклад в развитие точных и естественных наук в Узбекистане. Большинство наших ученых в настоящее время преподают в высших учебных заведениях нашей страны, также есть женщины-ученые, которые работают в школах и обучают школьников. Они повышают знания школьников и студентов с помощью своей работы. Они публикуют свою работу в виде статей и тезисов в национальных и международных журналах и благодаря этому делятся своими знаниями со своими коллегами и совершенствуют свои навыки и способности.*

***Ключевые слова:** точные науки, естественные науки, статья, журнал, диссертация, астрономия, математика, медицина, химия, история, философия, лингвистика, литературоведение.*

Contribution of uzbekistan scientists to the development of natural and exact sciences

***Abstract:** Today, among the scientists of our country, our women scientists are also working and they are contributing to the development of exact and natural sciences in Uzbekistan. Most of our scientists are currently teaching in higher educational institutions of our country, and there are also women scientists who work in schools and educate schoolchildren. They are increasing the knowledge of pupils and students with the help of their work. They have been publishing their work in the form of articles and theses in national and international magazines, and through this, they*

have been sharing their knowledge with their colleagues and improving their skills and abilities.

***Keywords:** exact sciences, natural sciences, article, journal, thesis, astronomy, mathematics, medicine, chemistry, history, philosophy, linguistics, literary studies*

Kirish

O‘zbekiston hududida qadim zamonlardan beri fan va madaniyat rivojlanib kelayotgan davlatdir. Xususan, astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, tarix, falsafa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi fanlar va haykaltaroshlik, to‘qimachilik, kulolchilik, shishasozlik va boshqa kasblar keng rivojlangan. Hozir O‘zbekiston olimlari uzoq o‘tmish mutafakkirlari qoldirgan ilmiy merosni faol o‘rganib, o‘zlarining yangi kashfiyotlari bilan fanni boyitgan holda jahon fani rivojiga munosib hissa qo‘shmoqdalar. Jumladan Boboqulova Nodira Nurmat qizi, Abdusaidova Dilfuza Fazilovna, Xankelova Gulnora Amandiqovna, O‘rinboyeva Kumushoy Sultobek qizi va boshqa olimalarimizni misol keltirib o‘tsak bo‘ladi.

Muhokama va natijalar

Boboqulova Nodira Nurmat qizi Shahrizabz davlat pedagogika instituti “Tabiiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi bo‘lib, bugungi kunda tabiiy fanlar rivojiga hissa qo‘shib kelmoqdalar. Uning *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* jurnali 3(4/2), April, 2023 sonida chiqqan “tabiiy fanlarning rivojlanishi va bugungi science fanining ta’limdagi o‘rni” maqolasini ham tabiiy fanlar rivojiga hissa qo‘shishda muvaffaqiyatli qadam sifatida ko‘rish mumkin. Nodira ustoz o‘z maqolalarida quyidagi fikrlarni yuritgan. Shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda tabiiy fanlarning o‘rni va yutuqlari beqiyosdir. Inson hayoti tabiat bilan uzviy bog‘liq va bu bog‘liqlik sayyorada muvozanat bo‘lishini ta’minlaydi. Ushbu maqolada tabiiy fanlar, uning rivojlanish tarixi, maqsadi, vazifalari, bugungi kundagi oliy ta’limda va xalq ta’limidagi o‘rni, bog‘liqligi va fanning kelajak istiqbollari haqida ma’limot berilgan. Maqolada science fani va uning bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalari haqida ham ma’limotlar keltirilgan.

Abdusaidova Dilfuza Fazilova va Xankelova Gulnora Amandiqovna Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 15-umumta’lim maktabi o‘qituvchilari bo‘lib, ularning “O‘zbekiston ilm-fan va ta’lim: ilmiy-amaliy izlanishlar, muammolar va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-masofaviy anjuman 2022-yil 25-dekabr dagi sonida “Tabiiy fanlarni o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati” mavzusidagi maqolasi Tabiiy fanlarni o‘qitishda amaliy mashg‘ulotlarning ahamiyati to‘g‘risida ko‘plab fikrlarni ochib berdi.

O‘rinboyeva Kumushoy Sultobek qizi Andijon davlat pedagogika instituti Informatika va aniq fanlar kafedrasida fizika fani o‘qituvchisi bo‘lib, bugungi kunda fizika fani rivojiga hissa qo‘shib kelmoqdalar. Uning Science and innovation International scientific journal ning Volume issue 7 UIF-2022:8.2 sonida chiqqan “Fizika o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash” mavzusidagi maqolasi ham tabiiy fanlar rivojiga hissa qo‘shishda muvaffaqiyatli qadam sifatida ko‘rish mumkin. Ushbu maqolaning annotatsiyasi quyidagicha: Fizika grekcha "tabiiy", "tabiat" so‘zlaridan olingan bo‘lib, tabiiy borliq haqidagi fan hisoblanadi. Fizika fanini oliy ta’limda va maktablarda o‘qitish ularga fanning mazmunini to‘laligicha anglatish hozirgi kundagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgi kunda fizika o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni fanga olib kirish va ta’lim jarayoniga qo‘llash takomillashmoqda. Ushbu maqola fizika fanini o‘qitishda ilmiy tadqiqot metodlari va STEAM texnologiyasining ahamiyatiga bag‘ishlangan.

Xulosa

Yuqorida ko‘rib o‘tgan olimalarimiz. Bugungi kunda tabiiy va aniq fanlarni o‘qitish borasida yurtimizdagi maktab va oliy ta’lim muassasida o‘qituvchilik kasbi bilan shug‘illanib kelishmoqda va ular o‘zbekistondagi tabiiy va aniq fanlar rivojiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shib kelishmoqda. Bu ishlarni amalga oshirishda o‘z ishlarini ko‘rsatish uchun maqola va tezislarni yurtimiz va xalqaro jurnallarda chop etib, hamkasblarining bilimlari oshishi va hozirgi kunda fizika o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni fanga olib kirish va ta’lim jarayoniga qo‘llash takomillashtirish uchun hizmat qilishmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://oriens.uz/media/journalarticles/35_Boboqulova_Nodira_Nurmat_qizi_238-243.pdf
2. <https://cyberleninka.ru/article/n/tabiiy-fanlarni-o-qitishda-amaliy-mashg-ulotlarning-ahamiyati>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/fizika-o-qitishda-zamonaviy-texnologiyalarni-qo-llash>